

2025-yil 21-oktabr

"O'zkimyosanoat" AJ va CRPT TURON o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi



"O'zkimyosanoat" AJ va "CRPT TURON" MChJ o'rtasida O'zbekistonda mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari sohasida raqamli markirovkalash tizimini rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi. Hujjat Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 203-son qarori maqsadlarini amalga oshirish uchun imzolangan bo'lib, tomonlarning sohani raqamli transformatsiya qilishda uzoq muddatli hamkorlikka intilishini mustahkamlaydi.

Memorandumning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- kontrafaktga qarshi kompleks kurashish va bozorning shaffofligini oshirish;
- Kasbiy tajriba almashish, qo'shma o'quv tadbirlari, konferensiyalar va davra suhbatlarini o'tkazish;

- Raqamli markirovka tizimini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni muvofiqlashtirish va birgalikda amalga oshirish.

Tomonlar agrar-sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilish va O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada muvofiqlashtirish va hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-va-crpt-turon-o-rtasida-hamkorlik-me-morand>